

**HUSAYN BOYQARONING “ISHQ SIRRIN OSHIQ O’LG’ON  
MUBTALOLARDIN BILING” G’AZALI SHARHI**

*(Buxoro davlat universitet 3-kurs talabasi*

*Boymurodova Munisa)*

**ANNOTATSIYA:** Maqolada o’zbek mumtoz adabiyotining yorqin namoyandasi shoh va shoir Husayn Boyqaroning badiiy-ma’rifiy, oshiqona-orifona, rindona g’azali ustida sharh olib boriladi. Biz ushbu maqola orqali “Ishq sirrin oshiq o’lg’on mubtalolardin biling” g’azalidagi ma’no-mohiyatni, Husayn Boyqaroning qalb botinida joy olgan kalimalarni bilib olamiz.

**ANNOTATION:** The article is about Uzbek classical literature a comment is made on the artistic-educational, romantic-orifice, simple ghazal of the prominent poet and poet Husayn Boykara. Through this article, we will learn the meaning of the ghazal “Ishq sirin ashik olgon mubtalardin biling”, the words that are in the heart of Husayn Boykara.

**KALIT SO’ZLAR:** *ishq, rind, porso, ruju’, Jomi Jam, Majnun, ishq majoziy, ishq haqiqiy, komil inson, tasavvuf.*

**KIRISH.** Ulug’ mutafakkir, so’z mulkining sultonı - Hazrat Alisher Navoiy madh etganidek “Sultonı Sohibqiron”, “hazrat”, “Abulg’ozi”, “Shoh Abulg’oziy”, “Shoh G’oziy”, “Sohibqiron”, “Sohibqiron Abulg’oziy”, “shoh”, “Mirzo”, “Xusravi G’oziy” – deya ta’rif va talqin etganidek, ushbu madh va maqtov sohibi shoh va shoir Husayn Boyqarodir.

Menimcha, shohimiz Hazrat haqida ham shunday ta’rifni qo’llash mumkin. Husayn Boyqaro shoh balki ulkan shoirdir. Husayniy g’azaliyoti muammolari atroflicha hal qilingan bo’lsada, uning tahlil talab nuqtalari juda ko’p. Zero, har bir g’azal satri bilan abadiylikka aloqador bu ulkan so’z san’atkorining ijodiy merosi o’rganilgan sayin chuqurlashib bormoqda. Husayn Boyqaroning turk

adabiyoti va tili sohasidagi faoliyati diqqatga sazovordir. U turk tilida ijod qilishni g'oyat olqishlagan, hatto ma'lum asarlarga tatabbular qilish uchun farmoyishlar berib turgan. Hazrat Alisher Navoiy o'zining "Muhokamatul-lug'atayn" asarida Husayn Boyqaro turkigo'y laqabi bilan mashhur bo'lgan "ramali musammani maqsur" vaznining g'oyat ravonlig' va latofatidin ruhparvarlig' va salosatidin o'z devonlarin...boshtin oyoq iltizom qilib, bu vaznda tartib beribdurlar erdi", [16,33-34] deb yozadi.

**ASOSIY QISM.** Shoh va shoir ijodiyoti sirlari tagiga borgan sari sirlar ko'payib bormoqda. Tadqiqotchi olima Suyuma G'aniyeva Husayn

Boyqaroning ma'lum bir g'zallarini jamlab bir devon tuzdilar. Ushbu devonga "Jamolingdin ko'zum ravshan" deb nomladilar. Biz tahlil qilmoqchi bo'lgan g'azal "Jamolingdin ko'zum ravshan" devoni tarkibidagi "Ishq sirrin oshiqlig'on mubtalolardin biling" matla'si bilan boshlanadi.

*Ishq sirrin oshiqlig'on mubtalolardin biling,  
Vasl komin topmay o'lgan benavolardin biling.*

*Ishqu hajru dard qasdim qildilar gar holima,  
Voqif ermassiz, bu yuzlangan balolardin biling.*

*Ganda har o'q zahmidin bag'rimda aylang bir boshoq  
Ul boshoqlarning hisobin bu yarolardin biling.*

*Ishq aro anduhu xasratsiz netar ko'nglumga za'f,  
Quvvatin ul notavonning bu g'izolardin biling.*

*Eyki bilmaysiz jununim, chun so'rarsiz holatim,  
Oni sharh aylarda nomafhumadolardin biling.*

*Bilmaganlar ishq bedodini Majnun holig'a,  
Bir jafo men tortqan turluq balolardin biling.*

*Ro'zgorimning qaro bo'lg'anlig'in kayfiyatin,  
Eyki bilmaysiz, ko'zu qoshi qaroladin biling.*

*Jomi jamlik shohlarning hashamatin mayxonada  
Dard uchun sing'an safol eltur gadolardin biling.*

*Gar Husayniy holatin ishq ichra bilmaysiz, ani  
Rindlig' ko'yiga tushgan porsolardin biling [8-9]*

“Jamolingdin ko’zum ravshan” devoni tarkibidagi ushbu g’azal 9 bayt (18 misra)dan iboratdir. Jami so’zlar soni: 109 ta. Qofiyalanishi: a-a, b-a, d-a, e-a, f-a, g-a, h-a, i-a, j-a kabi qofiyalanadi. Qofiyaga olingan so’zlar quyidagilar: mubtalolardin, benavolardin, balolardin, yarolardin, g’izolardin,adolardin, qarolardin, gadolardin, porsolardin. Qofiya tarkibidagi raviy (ya’ni-tirgak tovush) “o” tovushi hisoblanadi. Qofiyaning turiga ko’ra mujarrad qofiya sirasiga kiradi. G’azal Husayn Boyqaroning oshiqona-orifona, rindona g’azallari ichidagi eng go’zal namunalaridan biridir. Ushbu g’azalda tasavvufning muhim masalalari yoritilgan. G’azal matla’sida ishq borasida so’z yuritilgan.

*Ishq sirrin oshiq o'lg'on mubtalolardin biling,  
Vasl komin topmay o'lgan benavolardin biling.*

Ishq sirini-boshiga, yuragiga, qalbiga ishq savdosi tushganlardan bilmoqlikni aytadi. Ishq vasliga, ishq kamoliga erisha olmagan bechoralardan mening holimni biling kabi mazmun mujassam. Shu onda savol tug'ilishi o'rinnlidir.

Bu ishq-qanday ishq? Ishqi majoziymi, ishqqi haqiqiyimi? Yorga oshiqlikmi yoki Allohga oshiqlikmi? Yor, ma'shuqa, mahbubaga bo'lган muhabbat ishq majoziy, Allohga bo'lган muhabbat ishq haqiqiyidir. Bu g'azalni sharhi davomida ishq qanday ishqligini aniq va dalillar bilan guvohi bo'lamic. Darhaqiqat, ishq dardi Allohning barcha bandasi boshiga tushadi, shubhasiz. Allohga muhabbat unga faqatgina chiroyli so'zlar aytish bilangina emas, balki shunga hamohang xudojo'ylik, ibodat bilan yaqinlashish mumkin. Dunyo insonning asl mohiyatni anglashi uchun yaratilgan. Undagi barcha narsaning ibtidosi bo'lganidek, intihosi ham bor. U bir bevafo va o'tkinchi matohdir. Bu dunyodagi barcha narsalar zohiriyyidir. Matla'ning bevosita davomi hisoblangan ikkinchi baytda ishqning ta'rifi, sifatlari shoirga yuzlangan balolar sanashda davom etiladi.

*Ishqu hajru dard qasd qildilar gar holima,  
Voqif ermassiz, bu yuzlangan balolardin biling.*

Ishq, hajr va dard holimga qasd qildilar biroq xabardor emassiz, mening holimni menga yuzlangan balolardan biling. Ya'niki ishq savdosi tushgan kimsa joniga hajr, dard, mubtalo-yu griftor bo'ladi. Ishq bor ekan, uning tajalliylari hajr, firoq, dard, xasrat, iztirob kabi bir qancha dilni o'rtovchi vositalar qadamba-qadam, soniyama-soniya yaqinlasha borib, inson vujudiga qasd qiladi. Ishq, hajr, dard so'zları bir butunlikni tashkil qilib tanosub san'atini yuzaga chiqargan.

Uchinchi baytga nazar solsak:

*Ganda har o'q zahmidin bag'rimda aylang bir boshoq  
Ul boshoqlarning hisobin bu yarolardin biling.*

Ushbu baytda ruju' san'ati qo'llangan. Bu san'at she'riyatda shoirning oldingi misra yoki baytda ifodangan fikri, qo'llangan badiiy tasviriy vositasidan

qaytgandek bo'lib, keyingi misra yoki baytda uni kuchliroq ifodalab to'ldirishdir. Baytda oshiq bag'ri ishqdan yaralanganini bayon qiladi. Yaramas o'qning har bir jarohati bag'rimni boshoq ayladi. Bu boshoqlarning hisobini tanamdag'i, vujudimdag'i yaralardan ko'ring va biling. Ishq - ilohiy tuyg'u. U shunday tuyg'uki kimgadir bir xascha o't tushdimi tamom, uning butun jism-u jonini o't alangalab qurshab oladi.

To'rtinchi bayt ham uzlusiz uchinchi baytning davomi:

*Ishq aro anduh xasratsiz netar ko'nglumga za'f,  
Quvvatin ul notavonning bu g'izolardin biling.*

Ishq olamida bo'lган ko'nglim xasrat qilmaydi, biroq vujudim zaif, kuchsizlanib qoldi, quvvati bor yo'qligini bu oziqlardan so'rab biling. Haqiqatdan ham muhabbat kuyida bo'lган banda holi kasalmand holidek, lablari qurqshagan, tanasida madori, rangida qizillik yo'q bo'zdek holatda bo'ladi. Na uning ko'ngliga xursandchilik, baxt, saodat sig'ar va na unga ochlik shikoyat qilmas, sezilmas. Biz yuqorida majoziy va haqiqiy ishqlarni tilga oldik. Endi shuni sharhlasak, oshiq ma'shuqasini sog'insa, uni ko'rishni istasa, qay iloji bo'lsa ham chora izlab uni bir nazar ko'rishga muvofiq bo'ladi, ammo Allohga oshiq bo'lsa, uni ko'rmoqlikn'i butun jismi ila qalban xohlasa ham uning iloji yo'q, bu holatni biz haqiqiy ishq desak bo'ladi. Hatto yetti iqlim shohi bo'lsin, Qo'rundek boyligi bo'lsin, bor-yo'g'idan voz kechsa ham Alloh husn-u jamolini ko'rolmaydi. Ma'shuqaga oshiqlik esa majoziydir.

Beshinchi baytga kelib lirik qahramon suhbatdoshini jununim deydi. Ya'ni ishqdan telba bo'lган savdoyidir.

*Eyki bilmaysiz jununim, chun so'rarsiz holatim,*

*Oni sharh aylarda nomafhum adolardin biling.*

Holatimni ko'rib turibsan, lekin yana ahvolimni so'rarsan. Ahvolimni sharh etishni bilguvchilardan so'rang. Alloh ishqiga buyukdir. Allohga oshiq bo'lган о'злигина yo'qotib butun jismi Allohga bosh egadi. Chunki, bu olamda faqat birlik bor, ikkilik yo'qdir. Alloh yagona, faqat u bor va mavjud. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusufning "Ruhiy tarbiya II" kitoblarida

فُلْ إِنْ كُنْتُمْ ثُمَّ تُحْبُّونَ اللَّهَ فَأَتَيْتُكُمْ يُحْبِبُكُمُ اللَّهُ وَيَعْفُرُ لَكُمْ دُنُوبُكُمْ

" Allohnинг muhabbatи U zotga barcha narsani bag'ishlashdan iboratdir. Undan senga hech narsa qolmaydi. Bundan murod irodangni, azmingni, ishlaringni, nafsingni, molingni va vaqtingni o'zing muhabbat qo'ygan zot (ALLOH)ga hiba(topshirmoq)dir". [89,90]. Demak, sevi-muhabbat ikki taraflamadir. Allohnи sevish va Alloh bandasini sevishi.

Oltinchi baytda lirik qahramon, ishq kuychisi, muhabbat uni o'z komiga tortgan Majnun obrazi qo'llangan. Bu baytda Majnun obrazining qo'llanishi talmeh san'atini yuzaga keltirgan.

*Bilmaganlar ishq bedodini Majnun holig'a,  
Bir jafo men tortqan turluq balolardin biling.*

Majnun - oshiq. Uning nomi aslida Qays edi. U mahbubi ishqida mast va Allohga oshiq. Qays o'zini bilmas, o'zligini unutgan, butunlay ishq yo'liga griftor bo'lган. HazratAlisher Navoiy "Layli va Majnun" dostonida ikki xil ishqning talqinida shoir majoziy ishq martabasiga Majnun va Laylilar ishqiga misolida alohida urg'u beradi, chunki bu martaba komillik martabasi bo'lib, unda " pok ko'zni pok nazar bila pok yuzga solmoqdur va pok ko'ngul ul pok oshubidin ko'zg'olmoq va

bu pok mazhar vositasi bila oshiqi pokboz mahbubi haqiqiy jamolidin braha olmoq"dir.[14,68]. Oshiq ham o'z holini Majnun holiga qiyoslaydi. Deydiki, ishqning jabrin bilmaganlar Majnun holiga boqing, ishq qanday tuyg'u ekanligini, menga yo'liqqan turli balolardan biling. Ishq sahosida telba Majnundek his qiladi oshiq o'zini.

Yettinchi baytda oshiq atrofiga nazar solar ekan, muhabbat sabab uning turmushi og'ir ahvolga kelib, qora zulmat bo'lganini ko'radi.

*Ro'zgorimning qaro bo'lg'anlig'in kayfiyatini  
Eyki bilmaysiz, ko'zu qoshi qarolardin biling.*

Ushbu baytda tashbihli ma'nodagi istiora va tanosub san'atlari qo'llangan. Ya'niki, oshiq ishq og'ushiga berilib turmushi, ro'zg'orini esdan chiqaradi, bir atrofiga qarasa, xuddiki, turmushi qora tundek bo'lib ko'rindi. Shoir ushbu baytni ifodaviy, badiiy vositalar orqali juda chiroyli tasvirlagan. Ro'zg'orining qora bo'lishini qoshi, ko'zi qoralarga o'xshatadi "ko'z-u qoshi qarolardin biling"-deydi shoir. Tasavvuf an'analarida oshiq-boridan kechgan shaxs, qalbi Allohg'a bog'langan kishi. Yuqoridagi sifatlarga ega banda komil inson hisoblanadi. Aksincha qalbi Alloh taoloning muhabbat va ibodati hamda zikri bilan obod bo'lmaning bandanining ochko'z  
bo'lib, doimiy qashshoqlikda qolishi ham turgan gap.

Sakkizinchchi baytimiz bevosita Jamshid jomi bilan boshlanadi.

*Jomi jamlik shohlarning hashamatin mayxonada  
Dard uchun sing'an safol eltur gadolardin biling.*

Jomi Jam (Jamshid jomi) - Jamshid nomli podshoh yasattirgan tilsimli jom

(Navoiyning ta'rificha, Jamshid hakimlarga buyurib, ikkita jom yasattiradi. Birining nomi - *jomi ishratfizoy*. Bu jomdag'i may, ichgan bilan tugamas, to'liq turaverar, qiyshaytirilsa ham to'kilmas ekan. Ikkinchisining nomi - *jomi getinamoy*. Bu jomdan may ichgan paytda dunyoda yuz bergan hodisalar ko'rini turar ekan. Bu jomni - *jomi jahonbin*, *jomi jahonnamo* ham deydilar. Husayniy ushbu baytda shohlarning hashamatli mayxonasida may ko'pligin bilib Jomi jamga qiyoslaydi. Ishq dardidan ezilib, singan sopol qadahga may quyib shohga eltuvchi gadolar bilar sopol dardini. Baytdagi "jomi jam" talmeh san'atini keltirib chiqargan. Odatda, oshiq o'zini mayxo'rlikka beradi. Kecha-yu Kunduz uning ovqati-may bo'ladi. Maqta' lirik qahramonning holati bayoni ila yakunlanar ekan:

*Gar Husayniy holatin ishq ichra bilmaysiz, ani  
Rindlig' ko'yiga tushgan porsolardin biling.*

Oxirgi misrada rind va porso so'zлari ham tanosub she'riy san'atini ifdalagan. Tasavvufda bir qancha tariqatlar va tariqat vakillari bor bo'lishi bilan birga, har bir tariqatning o'zining ishi, amali, e'tiqodi va tushunchasi mavjuddir. Shular sirasiga kiruvchi rind kim? Porso kim?

Rind - rind bo'lганлик, aysh-ishratga berilgan, beg'am-beparvo kishi demakdir. Porso - yomon ishlardan o'zini saqlovchi,xudojo'y kimsadir. G'azal oxirida lirik qahramon ya'ni oshiq Husayniy ekanligi yaqqol ayonlashadi. Husayniyning isyonini ko'p. U ko'p iltijo, ilinj bilan bo'lsa ham Allohga erishishni istaydi. Aytadiki, Husayniyning bu holatini ishqdan deb o'ylamaysiz, uning bu ahvolini rindlig' ko'yiga tushgan porsolar (xudojo'ylar)dan biling. Darhaqiqat, bandaning eng yaqin rafiqi Allohdır. Endi bizga ayonki Husayniy muhabbatı "ishqi haqiqiy" ya'ni Allohga oshiq ekan. U qay yo'l bilan bo'lmasin Allohga yetishishni, Alloh jamolini ko'rishni orzu qiladi.

**XULOSA.** G'azal tom ma'noda rohatbaxshdir. Buni o'qigan kishi vujudi

jimirlab ketadi, orom oladi. Banda xato qilar, lekin Alloh mehribon va rahmdil. U kechiruvchan. Har qanday gunohkor va yo'ldan ozgan bandalar ham Alloh shafqati tufayli uning marhamatiga sazovor bo'lar. G'azal badiiy jihatdan ham g'oyatda e'tiborga loyiq. Tahlil davomida ushbu g'azalimizda juda ko'plab badiiy san'atlar, jumladan- tanosub, ruju', istiora, tashbih, talmehlarning betakror va g'oyatda go'zal namunalarini uchratdik. Husayniyning boshqa g'azallari singari ushbu g'azali ham asrlar silsilasidan o'tib, o'z qiymatini shu kungacha yo'qotmasdan kelmoqda. Ushbu Husayniy devoni va undagi g'azallar bugungi kunda ham komil insonni tarbiyalashda nimalarga e'tibor qaratish kerak degan savolga to'liq javob bera oladi. "Majolisun-nafois"da Hazrat Alisher Navoiy maxsus majlis-alohida bobda Husayn Boyqaro she'riyatini tadvin qoidasiga ko'ra alifbo tartibida tahlil qilib beradi. Bunda shoir g'azallaridagi mavzu rang-barangligi, badiyatdagi kashfiyotlar, noyob tashbihlar, dilrabo adolar haqida atroflicha so'z yuritadi. Shoir tarannum etgan ishqning qudrati va oshiqning iztiroblar, intilishlari, ruhiyatiga yuzlangan mayuslik yoxud xushnudlikni ajib bir dilbarlik bilan tarannum etishga noil bo'lganini ko'rsatib beradi. Husayniy she'riyatida dunyoviy ruhdagi lirika an'analariga, Hazrat Alisher Navoiy lirkasiga tayangani ko'zga tashlanadi. Ayni choqda, unda ijodkorning shoirona shu'uri, badiiy o'tkir nigohi ro'y়i rost namoyon bo'ladi.

### **FOYDALANILGAN ADABOYOTLAR :**

1. Eshonqulov H. Navoiyshunoslik. Lirik asarlarni sharhlash.-Toshkent: Fan ziyosi, 2023.-111b.
2. Haqqulov I. Tasavvuf va she'riyat.-Toshkent: Adabiyot va san'at, 1991.-184b.
3. Hojiahmedov A. She'riy san'atlar va mumtoz qofiya.-Toshkent: Sharq, 1998.-158b.

4. Islom tasavvufi manbalari. Tuzuvchi. X.Boltaboyev.-Toshkent: O'qituvchi, 2005.-400b.
5. Navoiy asarlar lug'ati. Tuzuvchi. S.Rafiddinov.- Toshkent: Akademnashr, 2023.-653b.
6. Navoiy A. Mukammal asarlar to'plami. 20 jildlik, 9-jild.- Toshkent: Fan, 1992.-377b.
7. Navoiy A. Mukammal asarlar to'plami. 20 jildlik, 13-jild.- Toshkent: Fan, 1997.-284b.
8. Navoiy A. Mukammal asarlar to'plami. 20 jildlik, 16-jild.- Toshkent: Fan, 2000.-329b.
9. Xo'jayev T. Navoiy devonlarida Husayn Boyqaro haqidagi mulohazalar talqini.- Urganch: Ilm sarchashmalari, 2020.-202b.
10. G'aniyeva S. Jamolingdin ko'zum ravshan.-Toshkent: G'afur G'ulom, 1991.-26b.
11. Shayx Muhammad Sodiq M.Y. Ruhiy tarbiya II.- Toshkent: Sharq, 2008.-461b.